

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INTEGRATIV-KOGNITIV TOPSHIRIQLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Karimova Kamola Komil qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.

e-mail: Karimovakamola29@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-6349-9584>

Annotatsiya.

Kirish. Ta'lim jarayonida faqat nazariy jihatdan bilimga ega bo'lish emas, balki o'quvchilarning yillar mobaynida olgan bilimlarini kundalik hayotida qo'llay olishga o'rgatish asosiy masala bo'lib borgani sari, pedagogik faoliyatni kompetensiyaviy, integratsion yondashuv asosida va shu bilan birgalikda kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirgan holda tashkil etishga yildan yilga talab oshib bormoqda. Bu masalada turli ishlar, faoliyatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini integrativ-kognitiv topshiriqlar yordamida rivojlantirishning mohiyati, integrativ ta'lim, kognitiv ko'nikmalarning ta'lim jarayonidagi afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, integrativ-kognitiv topshiriq, og'zaki nutq, yozma nutq, o'qish, tinglab tushunish, integrativ ta'lim.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАТИВНО-КОГНИТИВНЫЕ ЗАДАНИЯ

Каримова Камола Комил кизи

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант.

Аннотация.

В образовательном процессе главная задача заключается не только в получении теоретических знаний, но и в том, чтобы научить учащихся применять накопленные знания в повседневной жизни. С каждым годом возрастает необходимость организации педагогической деятельности на основе компетентностного и интегративного подходов при одновременном развитии когнитивных навыков. В этом направлении ведется активная работа. В данной статье раскрывается сущность развития речевой компетенции у младших школьников с помощью интегративно-когнитивных заданий, а также рассматриваются преимущества интегративного обучения и роль когнитивных навыков в образовательном процессе.

Ключевые слова: речевая компетенция, интегративно-когнитивная задача, устная речь, письменная речь, чтение, аудирование, интегративное обучение.

SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING SPEECH COMPETENCE OF PRIMARY GRADE STUDENTS THROUGH INTEGRATIVE-COGNITIVE TASKS

Karimova Kamola Komil qizi

Bukhara State Pedagogical Institute, Basic Doctoral Student.

Abstract.

In the educational process, the main issue is not only to acquire theoretical knowledge, but also to teach students to apply the knowledge they have acquired over the years in everyday life. The need to organize pedagogical activity on the basis of a competency-based, integrative approach, and at the same time develop cognitive skills, is increasing from year to year. Various works and activities are being carried out in this regard. This article presents the essence of developing the speech competence of primary school students using integrative-cognitive tasks, the advantages of integrative learning, and cognitive skills in the educational process.

Keywords: speech competence, integrative-cognitive task, oral speech, written speech, reading, listening comprehension, integrative education.

Kirish. Ta'lim jarayoni, pedagogik faoliyat keng tushunchalardan biri hisoblanadi. Hukumat amalga oshirayotgan

ta'limga oid islohotlarning yuqori natijasini davlat, maktab hamda uning jamoasi yakdilligi orqali ko'rishimiz mumkin. Mamlakat miqyosida olib borilayotgan asosiy ishlar doirasiga nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalasini kiritish ayni muddao sanaladi. Zero, zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda. Dastlabki bosqichda bo'lgan o'quvchilar uchun nutqiy kompetensiyani rivojlantirish keng imkoniyatlar ochib beradi. O'quvchilar nutqida yuzaga kelayotgan muammolar nafaqat nutqiy faoliyatga, balki ta'lim olish jarayoniga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bu o'rinda integrativ-kognitiv topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati har jihatdan ancha sezilarli va dolzarb hisoblanadi. Integrativ-kognitiv topshiriqlar orqali nafaqat nutqiy kompetensiya rivojlanadi, bundan tashqari, o'quvchilarda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, axborotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalari ham yuqori darajada rivojlantirib boriladi.

METODLAR

Nutq, nutqiy kompetensiya masalalarini yoritishda bir qancha olimlar izlanish olib borgan.

N.B. Adizova o'zining o'quv qo'llanmasida nutqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish. Nutq o'zaro aloqa qilish va xabarlashish, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq muvaffaqiyatli ta'lim olish quroli" [1].

A.D. Nuradilova ilmiy ishida nutqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Nutq tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol qo'llay olish demakdir. Aytish mumkinki, nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni yaxshi nutq namunasini idrok etish, o'rganilgan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish hamda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega".

Tadqiqotchining fikricha, nutqiy kompetensiya — bu nutqning erkin amaliy egaligi, dialog shaklida ham, monolog shaklida ham to'g'ri, ravon va dinamik gapirish, yaxshi eshitilgan va o'qilgan nutqni tushunish, shu jumladan, har qanday uslubda nutq yaratish va tushunish qobiliyati, to'plangan til materialidan yozma va og'zaki nutqda muloqot maqsadida foydalana olish mahorati [9].

L.M. Mambetova o'zining tadqiqot ishida uzluksiz ta'limda nutqiy faoliyat takomillashuvi va o'quvchilarning o'z nutqi ustida ishlashiga imkon yaratuvchi bir mezon sifatida fanlararo integratsiyani keltirib o'tgan. Yosh avlodning fikr jihatdan o'tkirliigi, yetuk shaxs sifatida shakllanishida ona tili ta'limining naqadar muhim ekanligi, nutqiy jarayon — muloqot bevosita ona tili darslarida shakllanishiga alohida urg'u berib o'tgan. Tadqiqotchi o'z ilmiy ishida nutqiy kompetensiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Nutqiy kompetensiya ta'lim oluvchining turli nutqiy vaziyatlarda qabul qilingan axborotlarning mohiyatini anglash, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda fikrni mantiqiy izchillikda bayon qila olish qobiliyatidir. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi ular bir bo'g'ini bo'lgan butun bir jamiyatda: oilasi, tengdoshlari, ijtimoiy faoliyati davomida muloqotga kirishadigan insonlar bilan amalga oshiradigan nutqiy faoliyatida takomillashib boradi, so'zlovchi va tinglovchi o'rnini egallaydi, turli savol-javoblarda ishtirok etadi, o'z fikrini himoya qiladi, munosabat bildiradi" [7].

Integrativ hamda kognitiv yondashuvlarga alohida urg'u qaratish nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda samarali natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Shu o'rinda integratsiyaning ahamiyati, kognitiv faoliyatga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

R. Mavlyanova, N. Raxmankulovalarning fikricha, integratsiya — o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllari almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashi va asabiylashishining oldini oladi. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi [2].

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi:

- ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;
- fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'z faniga bo'lgan qiziqishni oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi.

Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat [4].

J.O. Shomurodovning fikricha, kognitiv omillarni aniq va to'g'ri shakllantirish orqaligina o'quvchilarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish mumkin. Kognitiv omillarning muayyan turlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materiallarini tizimli o'zlashtirish;
- kognitiv topshiriqlarni mazmunli bajarish;
- o'quvchilarni badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini tahlil qilishga, matn mazmunini anglashga, idrok etishga undash.

Ta'limda barkamol shaxsni shakllantirish yetakchi tushunchadir. Bugungi kun o'quvchilarini kompetentlik, turli zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish bir qancha izlanish va yangilik kiritishni talab etadi [6].

Kognitiv qabul qilish tashqi axborotlarni aqliy faoliyat asosida qayta ishlashga yo'naltirilgan faoliyatdir. O'quv jarayoniga nisbatan kognitiv layoqatni rivojlantirish o'quv axborotlarini o'zlashtirish uchun xotirani mashqlantirish, axborotlardan foydalanish jarayonida aqliy faoliyat usullarini o'zlashtirishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan [8].


Yuqoridagi izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalardan kelib chiqib, integrativ-kognitiv topshiriqlar integrativ hamda kognitiv yondashuvlarning birlashishi natijasida nutqiy kompetensiyaning har jihatdan rivojlanishini, amaliyotda erkin qo'llanilishini hamda tafakkur bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

NATIJALAR

Nutqning rivojlanishi, olingan bilimlarning nutqda ravon ifodalanishi o'quvchilarning qay darajada kompetentligi bilan baholanadi. Nutqiy kompetensiya — bu o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, mantiqiy va to'g'ri bayon qila olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya tilni bilish va undan foydalanish ko'nikmalarini, kommunikativ vaziyatga mos so'zlashuvni amalga oshirishni hamda muloqotda samarali ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

Nutqiy kompetensiya — bu kishining muloqot jarayonida to'g'ri, ravon, mantiqiy va maqsadga muvofiq fikr bildirish, nutqiy vositalardan to'g'ri foydalanish qobiliyati.

Nutqiy kompetensiya o'z navbatida quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi tarkibiy qismlar

Mazkur elementlarning o'ziga xos xususiyati ularning amaliy jihatdan yo'naltirilganligidadir. Har bir komponent bir-birini to'ldirgan holda tizimli ravishda rivojlantiriladi. Bu o'rinda integrativ hamda kognitiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, muammoni hal qilish, axborotni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish bevosita integrativ va kognitiv yondashuvlarning uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi.

Integrativ ta'lim oddiydan murakkabga, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining «g'ishtchalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishiga, insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar sirini, yashil barglar, qadimiy afsonalar sirlarini ochishga intiladi. U makon va zamon bo'ylab sayohatga o'tlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochilishi kerak bo'lgan olamning go'zalligi va turli-tumanligini his qiladi. Murakkab dunyoqarashlar, ilmiy va badiiy g'oyalar bola tushunishi uchun qulay, obrazli mavzularda o'z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim integrativ ta'limning o'ziga xos xususiyatidir.

Integrativ ta'lim shaxsga moslangan yo'nalishga ega bo'lib, faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, qiziqishlari hisobga olinadi.

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqilligi, bilish faoliyati va qiziqishlari rivojlanadi. Integratsiyalashgan darslarning mazmuni, o'qituvchining o'qitish faoliyati o'quvchi shaxsiga bag'ishlangan bo'lib, ular qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirishga, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi va ularni turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirishga undaydi.

Integratsiyalashgan bilimlardan muntazam foydalanish turli xil ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Integratsiya o'zi uchun emas, balki o'qituvchi faoliyatidagi ma'lum tizim bo'lgani uchun yaxlit ta'limning yakuniy natijasi bo'lishi kerak. Bu integratsiyalashgan darslarni o'tkazishni va boshlang'ich sinf o'qituvchisining sinfdagi fanlarning hammasini yoki aksariyatini o'qitishini osonlashtiradi.

Kognitiv rivojlanish ta'lim oluvchining tushunchalarni anglash, tanqidiy fikrlash va mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini anglatadi. Bevosita aqliy jarayon bilan kechadigan bu hodisalar o'quvchini bilim olishga bo'lgan yuzaki

yondashuvdan uzoqlashtiradi. U har bir qabul qilgan ma'lumotini, duch kelgan vaziyatini chuqur tahlil qilishga harakat qiladi. Nafaqat tushunchalarni mushohada qilishda, balki o'zidagi kamchiliklarni bartaraf etishda ham mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash yetakchi imkoniyatlarga ega.

MULOHAZALAR

Integrativ-kognitiv topshiriqlar — fanlararo integratsiyani ta'minlagan holda bilish faoliyatini faollashtirish asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimidir.

Integrativ-kognitiv topshiriqlarning asosiy xususiyatlari

1-jadval

	Asosiy xususiyati	Mazmuni
1.	Fanlararo integratsiyalashtirilganligi	Topshiriqlar bir nechta fanlarning mazmunini uyg'unlashtirgan holda bilimlarning yaxlit o'zlashtirilishini ta'minlaydi.
2.	Bilish faoliyatini rivojlantirish	O'quvchilarni mustaqil izlanishga, tahlil qilishga, taqqoslashga, xulosa chiqarishga yo'naltiradi.
3.	Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish	Og'zaki nutq, yozma nutq, o'qib tushunish, tinglab tushunish malakalarini rivojlantirib, fikrni izchil, mantiqiy, ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
4.	Kompetensiyaviy yo'naltirilganligi	Nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini berib, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni rivojlantiradi.
5.	Shaxsga yo'naltirilganligi	Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati hamda individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi.
6.	Muammoli vaziyatlarga asoslanganli	Topshiriqlar muammoli vaziyatlarni hal etish orqali o'quvchilarning fikrlash hamda nutqiy faolliklarini oshiradi
7.	Ijodkorlikni rag'batlantirish	Noan'anaviy yechimlar topish, yangi g'oyalarni ilgari surish orqali ijodkorlikni rivojlantiradi.

Integrativ-kognitiv topshiriqlarni qo'llash jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratishni muhim omillar sifatida keltirib o'tishimiz mumkin:

- o'tilayotgan fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- topshiriq foydalanuvchilarining har birining imkoniyat darajasini o'rganib chiqish;
- topshiriqlarga ham nazariy, ham amaliy jihatdan yondashuv mavjudligi bois, foydalanuvchida ham shunday ko'nikmaning shakllanish bosqichidan rivojlanib, takomillashib borish bosqichiga yo'naltirish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, integrativ-kognitiv topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yetarli darajada rivojlantirilgan nutqiy kompetensiya o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rinlarini topishiga imkon yaratishi bilan bir qatorda, mamlakat ravnaqiga ham muhim hissa qo'shadi.

Integrativ-kognitiv topshiriqlar yordamida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tashkil etishda quyidagi taklif va tavsiyalarni belgilab berish maqsadga muvofiq:

- faoliyatni muntazam hamda ketma-ketlikda olib borishni ta'minlash;
- fanlar va voqea-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni to'g'ri tahlil qila olish;
- tahlil natijalariga asoslangan holda jarayonni olib borish;
- har bir erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan xatoliklarni o'rganish jarayonida metodikani qayta takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adizova N. B. *Ona tili o'qitish metodikasi*: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy Durdona, 2021. – 112 b.
2. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. *Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi*: o'quv qo'llanma. – Toshkent: ILM ZIYO, 2009.
3. Abdullayeva B. S. Fanlararo aloqadorlik turlari // *Uzluksiz ta'lim*. – Toshkent, 2005. – № 1. – B. 12–16.
4. Hayitov A. I. *Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi*: uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2021.
5. Toshpulatova D. K. *Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish*: ped. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023.
6. Shomurodov J. O. *O'quvchilarning badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini kognitiv qabul qilish layoqatini rivojlantirish mexanizmlari*: ped. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 51 b.
7. Mambetova L. M. *9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish*: ped. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 51 b.
8. Alimardonova M. B. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligida o'quvchilar kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi*: ped. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 24 b.
9. Nuradilova L. D. *Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish*: ped. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 51 b.